

Date: 7<sup>th</sup> April-2026

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA LOYIHAVIY TA'LIMNING MAQSADI VA  
TASHKIL ETISH USULLARI.**

**Baxriddinov Azizbek Xayrullo o'g'li**

NamDU tayanch doktoranti

Email: azizbekbaxriddinov834@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda loyihaviy ta'limning maqsadi, ahamiyati hamda uni samarali tashkil etish usullari yoritildi. Loyihaviy ta'lim vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, ijodiy yondashuvini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarda yechim topish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu yondashuv o'quvchilar egallagan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, jamoada ishlash, o'z fikrini erkin ifodalash kabi muhim kompetensiyalarni egallashga yordam beradi. Mazkur maqolada loyihaviy ta'limni tashkil etishning asosiy bosqichlari — muammoni aniqlash, rejalashtirish, izlanish olib borish, natijalarni taqdim etish va baholash jarayonlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, loyihalarni tanlash, ularni soddalashtirish va qiziqarli shakllarda tashkil etish usullari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari loyihaviy ta'limning boshlang'ich ta'lim jarayonida samaradorligini oshirish, o'quvchilarning faolligini kuchaytirish va ta'lim sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Loyihaviy ta'lim, mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, tadqiqod ishi, amaliy faoliyat.

**THE PURPOSE AND METHODS OF ORGANIZING PROJECT-BASED  
LEARNING IN PRIMARY EDUCATION**

**Baxriddinov Azizbek Khayrullo ogli**

NamSU: researcher

Email: azizbekbaxriddinov834@gmail.com

**Annotation:** This article highlights the purpose, significance, and effective methods of organizing project-based learning in primary education. Project-based learning serves to develop primary school students' creative thinking skills, enhance their creative approach, and strengthen their ability to find solutions in problem situations. It also helps students connect the theoretical knowledge they have acquired with practical application, and fosters essential competencies such as teamwork and the ability to express their ideas freely. The article analyzes the main stages of organizing project-based learning, including identifying the problem, planning, conducting research, presenting results, and evaluation. In addition, it outlines methods for selecting, simplifying, and organizing projects in engaging ways, taking into account the age characteristics of primary school students. The research findings demonstrate that project-based learning plays a significant role in



Date: 7<sup>th</sup> April-2026

increasing the effectiveness of the primary education process, enhancing student engagement, and improving the overall quality of education.

**Keywords:** Project-based learning, independent thinking, creative approach, research work, practical activity.

## **ЦЕЛЬ И МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЕКТНОГО ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

**Бахриддинов Азизбек Хайрулло угли**  
НамДУ: Докторант

**Аннотация:** В данной статье освещаются цель, значение и эффективные методы организации проектного обучения в начальном образовании. Проектное обучение направлено на развитие творческого мышления учащихся начальных классов, совершенствование их креативного подхода и укрепление способности находить решения в проблемных ситуациях. Оно также помогает учащимся связывать полученные теоретические знания с практическим применением и формирует важные компетенции, такие как умение работать в команде и свободно выражать свои мысли. В статье анализируются основные этапы организации проектного обучения, включая выявление проблемы, планирование, проведение исследования, представление результатов и оценивание. Кроме того, рассматриваются методы отбора, упрощения и интересной организации проектов с учётом возрастных особенностей учащихся начальных классов. Результаты исследования показывают, что проектное обучение играет важную роль в повышении эффективности процесса начального образования, увеличении вовлечённости учащихся и улучшении общего качества образования.

**Ключевые слова:** проектное обучение, самостоятельное мышление, творческий подход, исследовательская работа, практическая деятельность.

### **KIRISH**

Hozirgi ta'lim jarayonida loyihaviy ta'lim texnologiyasidan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylanib ulgurgan. Loyihaviy ta'limdan foydalanish nutq, yozma va fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Dars jarayonlarida loyihaviy ta'limdan samarali foydalanish uchun, uni o'quvchilarning yoshi qobilyati va qiziqishini inobatga olgan holda tatbiq etish lozim. Shu bois, bugungi jahon mehnat bozoriga sifatli kadrlarni tayyorlashda kreativ fikrlaydigan, o'z fikrini erkin bayon qila oladigan yosh avlodni tarbiyalash muhimdir. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyasi zarur hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Loyihaviy ta'lim bo'yicha bir qator tadqiqotchilar ilmiy izlanish olib borgan. Besa B. o'zining "Teaching approach where learning comes lives" maqolasida loyihaviy ta'limni dars jarayonlariga tatbiq etishning bir necha usullarini keltirib o'tgan. Shuningdek,



Date: 7<sup>th</sup> April-2026

Simpson ham “ Integrating PBL in an English Language in the classrom” asarida loyihaviy ta’limning ahamiyati va dars jarayonlarida qanday qilib loyihaviy ta’limni tashkil etish bo’yicha o’qituvchilarga tavsiyalar berib o’tgan. Shu bilan bir qatorda, James ham “Teaching for Transfer in ELT” asarida loyihaviy ta’lim bo’yicha kerakli xulosalar va bir qator foydali ma’lumotlar bilan bo’lishgan va u o’zining maqolasida loyihaviy ta’lim yondashuviga o’z qarashlarini keltirib o’tgan. Beckett, G.H. va Slaterlar ham loyihaviy ta’lim bo’yicha “The project framework: a tool for language, content, and skills integration” nomli ilmiy ish qilishgan va ushbu ilmiy maqolasida loyihaviy ta’limning til ko’nikmalarini va kreativ hamda tanqidiy fikrlashdagi ahamiyatini ham keltirib o’tgan.

### **TADQIQOD METODOLOGIYASI**

Maqolada loyihaviy ta’limning maqsadi va dars jarayonlariga tadbiiq etish bo’yicha tavsiyalar berilgan. Dars jarayonlarini loyihaviy ta’limvositasida tashkillashtirishning bir qator afzalliklari va kreativ hamda mustaqil fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishdagi muhim ahamiyati ham keltirib o’tilgan. Shuningdek, o’quvchilarning qiziqishi, bilim darajasi hisobga olgan holda loyihaviy ta’lim topshiriqlarini tuzish lozimligi ham yoritilgan.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

“Loyihaviy ta’lim” ta’lim tizimida uzoq yillardan beri mavjud. Psixologiya sohalaridagi tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, loyihaviy ta’lim o’rganishning kognitiv va xulq-atvor modellarini kengaytirishga hizmat qiladi. Ushbu yondashuv an’anaviy ta’lim bilan bevosita bog’liq bo’lsa-da, loyihaviy ta’lim bilim, fikrlash, amaliy faoliyat va o’rganish kontekstini o’z ichiga qamrab qamrab oladi. Loyihaviy ta’lim o’rganish jarayonining qisman ijtimoiy faoliyat bo’lib, u madaniyat, jamiyat va shaxsning oldingi tajribalari kontekstida amalga oshadi. Shuningdek, loyihaviy ta’lim bu o’qitishning tizimli usuli hisoblanib, unda o’quvchilar bilim va ko’nikmalarni murakkab, haqiqiy hayotga yaqin savollar atrofida tashkil etilgan uzoq muddatli izlanish jarayoni orqali o’zlashtiradilar. Bu jarayon puxta rejalashtirilgan mahsulotlar va vazifalar bilan qo’llab-quvvatlanadi. Loyihaviy ta’lim bir sinfda bitta fan asosida 1–2 haftalik qisqa loyihalardan tortib, butun yil davom etadigan, fanlararo bog’langan, jamiyat vakillari va maktabdan tashqaridagi kattalar ishtirok etadigan yirik loyihalarni qamrab oladi. Loyihaviy ta’lim bilim olish va amaliyotni uyg’unlashtiradi. O’quvchilar asosiy o’quv dasturi bo’yicha bilim va tushunchalarni o’rganadilar, shu bilan birga o’z bilimlarini haqiqiy muammolarni hal qilishda qo’llaydilar va muhim natijalar yaratadilar. Demak, bu metodikaning asosi — “amalda o’rganish”dir. Xususan, ingliz tili darslarida loyihaviy ta’lim o’quvchilarga til ravonligi va aniqligini rivojlantirish, yozma nutq ko’nikmalarini yaxshilash bilan birga, o’ziga ishonch, muammoni hal qilish, qaror qabul qilish va hamkorlik kabi shaxsiy sifat va ko’nikmalarni ham shakllantirishga yordam beradi. Loyihaviy ta’lim o’quv faoliyatida amaliy mashg’ulotlardan foydalanilganligi bois u o’quvchilarning yanada mustaqil o’rganuvchi bo’lishiga yordam beradi. Natijada ular sinfda o’rgangan ko’nikmalarini kundalik hayotida ham qo’llay oladilar. Loyihaviy ta’lim o’qituvchilarga o’quv dasturini tuzishda moslashuvchanlik beradi va o’quvchilarni qiziqtiradigan materiallarga e’tibor qaratish imkonini yaratadi. Bu yondashuvda o’quvchi jarayon markazida bo’ladi hamda



Date: 7<sup>th</sup> April-2026

mustaqillik, muammo yechish, tanqidiy fikrlash, shuningdek, shaxslararo va hayotiy ko'nikmalar rivojlantiriladi.

Loyiha ta'limni "o'rganishni loyihalar atrofida tashkil etadigan o'qitish modeli" sifatida ham ta'riflangan. Loyihalar murakkab vazifalardan iborat bo'lib, ular qiyin savollar yoki muammolar asosida tashkil qilinadi va o'quvchilarni loyihalash, muammoni hal qilish, qaror qabul qilish hamda tadqiqot faoliyatlariga jalb etadi. Bu jarayon o'quvchilarga uzoq vaqt davomida nisbatan mustaqil ishlash imkonini beradi va oxir-oqibat real mahsulot yoki taqdimot bilan yakunlanadi. Loyihaviy ta'limda topshiriqlar tizimli shaklda tuzib chiqilishi lozim. Bunda topshiriqlar o'quvchilarning egallagan bilimlari natijasida osondan-qiyingacha tarzda tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, topshiriqlar turlariga ko'ra individual hamda jamoaviy ishlashni qo'llab-quvvatlaydi hamda yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini, taqdimot mahoratini va tilga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Simpson loyihaviy ta'limni amalga oshirishning quyidagi to'rt bosqichini taklif etadi:

**1.Loyihani boshlash.**Bu bosqich o'qituvchining loyiha bilan bog'liq kirish tushuntirishlarini o'z ichiga oladi. O'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan va mavzuga mos bo'lgan yo'nalishni tanlashlari mumkin. O'qituvchi yo'naltiruvchi savollar tuzib, talabalarga nima qilish kerakligi haqida tushuncha beradi va ularni izlanishga undaydi. Shundan so'ng talabalar loyiha rejasini ishlab chiqadilar, tadqiqot usullarini, yakuniy natijalarni va har bir ishtirokchining vazifalarini belgilaydilar.

**2.Loyihani rivojlantirish.**Tadqiqot jarayonini o'z ichiga oladi. Tadqiqot guruh a'zolari tomonidan yakka tartibda, juftlikda yoki jamoa bo'lib amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda o'qituvchi talabalarga manbalar va mavzu bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

**3.Sinfga hisobot berish.**Loyiha taqdim etiladi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan fikr-mulohazalar olinadi. Bu jarayon jamoaviy ishlashni, faol tinglashni va konstruktiv fikr bildirishni talab qiladi.

**4.Loyihani baholash.**Yakuniy bosqichda talabalar o'z ishlarini og'zaki tarzda taqdim etadilar. Taqdimotdan so'ng boshqa talabalar savollar beradilar va fikr bildiradilar. Yakuniy baholash o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

## **XULOSA**

Boshlang'ich sinflarda loyihaviy ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarda bilimlarni faqat o'zlashtirish emas, balki ularni amalda qo'llay olish, mustaqil izlanish olib borish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu yondashuv orqali o'quvchilarning ijodkorligi, muloqot madaniyati va jamoada ishlash qobiliyati rivojlanadi.Loyihaviy ta'limni tashkil etishda o'qituvchi yo'naltiruvchi va maslahatchi rolini bajaradi, o'quvchilar esa faol ishtirokchi sifatida o'z loyihalarini rejalashtiradi, bajaradi va natijalarini taqdim etadi. Ushbu jarayonda muammoli vaziyatlar yaratish, guruhli ishlar tashkil etish, interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.Umuman olganda, loyihaviy ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilib, ularni kelajakdagi ta'lim bosqichlariga tayyorlaydi hamda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.



Date: 7<sup>th</sup> April-2026

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Besa B. (2021). Teaching approach where learning comes lives. The Journal of teaching english for specific and academic purposes. Vol. 9, N<sup>o</sup> 4, Special Issue, 2021, pp. 775–777 2021 by University of Niš, Serbia | Creative Commons License: CC BY-NC-ND <https://doi.org/10.22190/JTESAP2104775B> South East European University, North Macedonia
2. Beckett, G.H. & Slater, T. (2005). The project framework: a tool for language, content, and skills integration. *ELT Journal*. 59(2): 108-116. Oxford University Press.
3. Belcher, D. (2009). What ESP Is and Can Be: An Introduction. In D. Belcher (Ed.), *English for Specific Purposes in Theory and Practice*. Ann Arbor: University Of Michigan Press.
4. Fried-Booth, Diana L. (2002). *Project Work*. (2nd ed.). New York: Oxford University Press.
5. Ichsan, M. H. (2016) [media.neliti.com](https://media.neliti.com/media/publications/213975-none.pdf) Retrieved Aug 28, 2021 from <https://media.neliti.com/media/publications/213975-none.pdf>
6. James, M. A. 2006. Teaching for Transfer in ELT. *ELT Journal*, Vol. 60 No. 2, 151-159. Oxford University Press.
7. Markham, T., Larmer, J., & Ravitz, J. (2009). *Project based learning handbook: A guide to standards-focused project based learning*. Novato, CA: Buck Institute for Education.
8. Simpson, J (2011) Integrating PBL in an English Language Tourism Classroom in a Thai University. Australian Catholic University: Unpublished Dissertation
9. Thomas, J. W. (2000). A review of research on project-based learning. Retrieved <http://www.bie.org/images/uploads/general/9d06758fd346969cb63653d00dca55c0.Pdf>

